

Maftuna BAXTIYOROVA,
 Oriental Universiteti v.b. dotsenti
 Gmail: maftunabakhtiyorovna.phd@gmail.com
 Tel.: +998919535222

O'zMU dotsenti, f.f.d. N.A.Sadullayeva taqrizi asosida

ONOMASTIC CONCEPT

Annotation

One of the most important social tasks of the language is to separate and name the things, events, events, symbols that are socially important for the members of the society. Therefore, distinguishing between which language and what kind of existence and reality depends on the lifestyle of the members of the society. The quality and actions of objects and events in the objective existence are felt by the speakers of the language, and based on their unique perception; they are named in comparison with themselves. Because this process is based on a person, it is illogical to name things and explain their essence separately from the person. Therefore, in the anthropocentric paradigm, language is the main element that makes up the human personality.

Key words: onomasticon, concept, conceptualization, onomastic unit, historical etymological, historical ethnographic, systematic study.

ОНОМАСТИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ

Аннотация

Одна из важнейших социальных задач языка – выделять и называть предметы, явления, символы, имеющие социально важное значение для членов общества. Поэтому различие того, какой язык и какой вид существования и реальности зависит от образа жизни членов общества. Качество и действия предметов и событий предметного существования ощущаются носителями языка и на основе своего уникального восприятия именуется в сравнении с самими собой. Поскольку в основе этого процесса лежит человек, нелогично называть вещи и объяснять их суть отдельно от человека. Итак, в антропоцентрической парадигме язык является основным элементом, составляющим человеческую личность.

Ключевые слова: ономастикон, концепт, концептуализация, ономастическая единица, историко-этимологическая, историко-этнографическая, систематическое исследование.

ONOMASTIK KONSEPT TUSHUNCHASI

Annotatsiya

Tilning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa, voqea, hodisa, belgi xususiyatlarni ajratib alohida nomlashdan iboratdir. Shuning uchun qaysi til qanaqa turdagi borliq, voqeliklarni farqlash jamiyat a'zolarining turmush tarziga bog'liqdir. Obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning sifati, harakatlarini til egalari his qilib, o'ziga xos idroki tarzidan kelib chiqib, o'ziga qiyoslab nomlaydi. Ushbu jarayon asosida inson turganligi sababli ham narsa-hodisalarni nomlash va bularning mohiyatini insondan ajratib izohlash mantiqqa ziddir. Demak, antroposentrik paradigmadagi til-inson shaxsini tarkib toptiruvchi asosiy unsur hisoblanadi.

Kalit so'zlar: onomastikon, konsept, konseptuallashuv, onomastik birlik, tarixiy etimologik, tarixiy etnografik, tizimiy o'rganish.

Kirish. Ijtimoiy talabga mos ravishda nomlash dunyo tillarining barchasi uchun umumiy xususiyatdir. Lekin kundalik hayotda har bir shaxs umuman odam bilan, umuman erkak bilan, umuman ayol bilan, umuman ko'l bilan, umuman ko'cha bilan, umuman shahar bilan, umuman qishloq bilan emas, balki ko'proq muayyan bir erkak, muayyan bir ayol, muayyan bir shahar, muayyan bir muassasa, muayyan bir ko'l kabi turdan ajratilgan muayyanliklar bilan ish ko'radi. Konseptuallashuv faoliyati ham, o'z navbatida, ko'p bosqichli bo'lib, uning bajarilishi turli amallar ijrosini talab qiladi. R.I.Pavilyonising ta'biricha, konsept paydo bo'lishi olamni idrok etish faoliyatining natijasidir, chunki xuddi shu jarayonda inson ongida idrok etilayotgan obyekt haqida ma'lum bir tushuncha tug'iladi. O'z fikrini aniqlashtirish istagidagi faylasufning yozishicha, "Bilish jarayoni – idrok etilayotgan obyektlar haqidagi axborotning jamlamasi bo'lgan mazmun yoki konseptning shakllanish jarayonidir" [6].

Ozarbayjon olimi A.Gurbanov ozarbayjon tilining onomastik birliklar ("voxidlar")i qatoriga antroponimlar, etnonimlar, toponimlar, gidronimlar, zoonimlar, kosmonimlar, ktematonimlarni kiritgan edi [3]. Onomastik birlikda quyidagi uchta xususiyat namoyon buladi: a) "onomastik birlik" termini biror yakka atoqli otni ifodalab keladi: *Muhabbat* (ism), *Go'zal* (ism), *Dangara* (toponim), *Beshkent* (toponim), *Mushtariy* (yulduz nomi - kosmonim), "*Mushtum*" (jurnal nomi - ideonim) kabilar; b) onomastik birlik nominativ-funksional xususiyatiga ko'ra biror guruhga birlashuvchi nomlar majmuini ifodalaydi: toponimlar, zoonimlar, kosmonimlar, urbanonimlar kabi; v) onomastik birlik onomastika doirasida umuman atoqli ot tushunchasini anglatadi.

Mavzuga oid dabiyyotlar tahlili. Antropolog va etnologlar Afrika, Osiyo, Yevropadagi eng qadimiy xalqlarning ibtidoiy nomlarini o'rganish natijalariga asoslanib, insonlarga nom berish sabablari har xil bo'lgan, degan xulosaga kelishdi: Shimoliy-G'arbiy Kavkaz xalqlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, juda qiziqarli nom qo'yish an'anasiga duch kelamiz, XVI asrda yangi tug'ilgan chaqaloqqa tug'ilgandan keyin uyga birinchi bo'lib kirib kelgan begona odamning ismi berilgan, bu begona odamning ismiga esa doimo "uk" qo'shimchasi qo'shilgan: *Petruk*, *Paulyuk* va boshqalar. A.A.Ufimsevaning fikricha, "... lisoniy nomlash faoliyati shaxsning tipik tasavvuri va til sohiblari jamoasining umumiy tajribasi bilan bog'liq, ya'ni so'zlarning nominativ funksiyasi ijtimoiy va psixologik asosga ega" [8]. Etnolingvistik tadqiqotlarda tarix, mifologiya, dialektologiya, folklorshunoslikda qo'llaniladigan usullarga ham murojaat etiladi. B.G.Texas o'zining "Oilaviy rivoyatlar va taxalluslarning tarixiy-etnografik tahlili" asarida Adigey familiyalarining kelib chiqishi haqidagi rivoyat va an'analari tarixiy etnografiya uchun qimmatli material bo'lib, juda qadimiy ijtimoiy shakllar va munosabatlarni qayta tiklash imkonini berishini qayd etadi [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Tilning eng muhim ijtimoiy vazifalaridan biri jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan narsa, voqea, hodisa, belgi xususiyatlarni ajratib alohida nomlashdan iboratdir. Shuning uchun qaysi til qanaqa turdagi borliq, voqeliklarni farqlash jamiyat a'zolarining turmush tarziga bog'liqdir. Obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning sifati, harakatlarini til egalari his qilib, o'ziga xos idroki tarzidan kelib chiqib, o'ziga qiyoslab olmaydi. Ushbu jarayon asosida inson turganligi sababli ham narsa-hodisalarni nomlash va bularning mohiyatini insondan ajratib izohlash mantiqqa ziddir. Demak, antroposentrik paradigmadagi til-inson shaxsini tarkib toptiruvchi asosiy unsur hisoblanadi.

Yangi bilim strukturasi – konseptning paydo bo'lishi esa avvalgi konseptlar negizida kechadi. Bu insonning konseptual tizimida mavjud bo'lgan bilimlar lisoniy belgi ko'rinishini olganlaridan so'ng til tizimida yangi ma'nolarni anglatuvchi boshqa (ikkilamchi) nominativ birliklarni yaratish ehtiyoji va imkoniyatining tug'ilishidan darak beradi. Xuddi shu yo'sindagi bilish faoliyatida yaratiladigan yangi konseptlar, ular lisoniy belgi ko'rinishini olganlaridan so'ng, konseptual tizimning ajralmas qismiga aylanadilar hamda uning istiqboldagi rivoji uchun asos yaratadilar. Bu ta'rif onomastikonlarga ham daxldor, ayniqsa, ismlar toponimlarga aylanganda bu hodisa yaqqol seziladi: *Muborak* – ayol kishi ismi; shuningdek, *Muborak* – Qashqadaryo viloyatidagi tuman nomi, *Isroil* – kishi ismi, *Isroil* – mamlakat nomi; *Arsi* – kishi ismi, *Arsi* – Normandiyadagi kichik shaharcha.

Tahlillar va natijalar. Til birliklari mazmun strukturasi kognitiv tavsifi masalalari bilan shug'ullangan F.Ungerer va X.Shmidtning qayd etishicha, obyektlarning ko'p xususiyatligi sababli, ularning tafakkurdagi idroki jarayonida yuzaga keladigan konsept integral ko'rinish oladi hamda shu asosda obyektning geshtalt tasavvuri yuzaga keladi. Lekin bunday tasavvurdagi konseptning lisoniy ifodasida asosiy belgi va bo'laklarning o'rni alohida, chunki "alohida qismlar faqat obyektning to'liq shakli tasvirida muhim rolni o'ynab qolmasdan, balki ushbu obyektning bajaradigan vazifasida ham yetakchi o'rinni egallaydi" [1]. Shunga binoan, lisoniy birliklarning yuzaga kelishida muhim bo'lgan kategoriyalashtirish quyidagi geshtalt tamoyillariga amal qilishi shart, deb hisoblanadi: "yaqinlik, qo'shniqlik tamoyili" – yaqin masofadagi predmetlar bir-biriga bog'liq holda idrok qilinadi; "o'xshashlik tamoyili" – bir-biriga o'xshash alohida elementlar yaxlit bir bo'lak sifatida idrok etiladi; "davomiylik, uzluksizlik tamoyili" – alohida elementlar o'rtasidagi uzilishlar qisqa bo'lganida ham ular yaxlitlik ko'rinishida idrok qilinadi.

Bu ko'rinishdagi tamoyillar, so'zsiz, onomastik birliklar vositasida ifodalanadigan yaxlit konseptlarning hosil bo'lishida ham namoyon bo'ladi. Masalan, *wolf* turdosh oti onomastik birlik hisoblanadigan konseptlarda ushbu kategoriyaning qator xususiyatlari o'z aksini topadi. Chunonchi, *Bo'riboy*, *Bo'rigul*, *Bo'riniso*, *Bo'rixon* kabi ismlarni tildagi turdosh ot *bo'ri* so'zining aynan o'zi deb bo'lmaydi. Ism sifatida qo'llanuvchi *bo'ri* aslida turdosh ot bo'lgan *bo'ri* (*wolf*)dan yuzaga kelgan bo'lsa ham, u endi atoqli ot sifatida o'ziga xos semantik, nominativ va funksional belgilarga egadir. Dastlabki o'rinda ob'ektning nomlanishida bo'riining yirtqichlik xususiyati inobatga olinadi. Keyingi navbatda esa, ushbu hayvonning ayyorlik, mag'rurlik xislatlari nazarda tutiladi, va onomastik konsept yaratiladi.

Ushbu keltirilgan konseptlar tahlildan ko'rinadiki, tasniflovchi ma'nolar tafakkurning konkretlikdan mavhumlikka qarab yo'nalishi natijasidir. Ushbu ko'rinishdagi tafakkur faoliyatining maqsadi predmetning biror bir xususiyatini nomlash emas, balki insonlarning ma'lum sharoitdagi xatti-harakatini ifodalash, tavsiflashdir. Lekin bu yo'sindagi kategoriyalashtirish holatlarida ham qiyoslash amali ma'lum darajada namoyon bo'ladi. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda quyida atoqli va turdosh otlarning har biriga xos ayrim mulohazalarimizni ham qiyoslash amali orqali bayon qilamiz:

- turdosh otlardan farqli ravishda atoqli nomlar ikkilamchi hodisa sanaladi. Chunki ular turdosh ot til birliklaridan hosil bo'lib, ular ma'nosi bilan assotsiativ aloqani yo'qotib, narsa va hodisalarni bir-biridan ajratish vazifasini bajaradi;
- turdosh ot bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinadi. Deyarli barcha lug'atlarda o'z aksini topadi. Onimlar tarjima qilinmaydi (ayrim elementlar tarjimasi bundan mustasno). Faqatgina maxsus onomastik lug'atlarda aks ettiriladi;
- turdosh leksik birliklar omonim, sinonim, antonim, polisemantik xususiyatlarga ega, onimlarda bunday xususiyatlar uchramaydi yoki chegaralangan bo'ladi;
- turdosh otlar ongda doimiy turadi, onimlar mexanik ravishda esda saqlanadi, tezda esdan chiqadi;
- turdosh ot grammatik jihatdan birlik va ko'plikda qo'llana olsa, atoqli ot faqat birlikda qo'llanadi. Ko'plik shakldagi atoqli ot boshqa ma'no xususiyatiga ega bo'ladi;
- turdosh otlar umumiylikni anglatadi, atoqli otlar xususiy bo'lib, bir shaxsni ko'rsatadi.

Bu o'rinda shuni ham qayd qilish lozimki, nutqda atoqli va turdosh otlar bir-biriga o'tishi mumkin. Jumladan, turdosh otlar atoqli otga o'tganda, ularning ma'nosi torayadi. Predmetlarning umumiy nomidan yakka-ikkilikka o'tadi. Shaxslarni bir-biridan ajratish uchun xizmat qiladigan antroponimik ma'no hosil qiladi. Ayrim hollarda atoqli otlar konkret vaziyatlarda o'zining shakl va mazmunini o'zgartirib, turdosh otlar qatoriga o'tishi mumkin. Bu quyidagi hollarda ro'yobga chiqadi: a) atoqli otlar, jumladan, bir shaxs oti ko'plik shaklini o'ziga birlashtirib bir sotsial guruh yoki bir kasb egalari to'ldasini ifodalaydi. Bunda konkret shaxs nomi turdosh otga aylanadi: *gagarinlar*, *tursunoylar*; b) muayyan shaxs nomlari ba'zan jonsiz narsalar nomiga aylanib turdosh otga o'tadi: *kulon*, *amper*.

Ba'zan mashhur shaxslarning nomlari parafrazalar yordamida ham ifodalanishi mumkin. Bunday ifodalash sof uslubiy xarakterga ega bo'lib, alohida tadqiqotni talab qiladi. Onomasiologik birliklar – nomlar, atoqli otlarning apellyativ leksika, ya'ni keng iste'mol turdosh otlari bilan o'zaro ma'naviy munosabatlarini tilshunoslik fanida bir necha xil tushunadilar. Bu tushunchalarni asosan uch xil tasniflash mumkin:

1. Tarixiy etimologik tushunish. Bu yo'nalishda atoqli otning, jumladan, bizni qiziqtirgan antroponimlarning qaysi so'zdan kelib chiqqanligi, bu so'zning lug'aviy etimologik ma'nosini sharhlash. Chunonchi, Temur antroponimi hozirgi o'zbek adabiy tilida metall, ma'danlarning bir turini atab keluvchi "temir" turdosh otining eskirgan fonetik variantidan kelib chiqadi. Yoki muhabbat ayol antroponimi arabcha "hubba" fe'lidan kelib chiqadi va ishq, sevgi ma'nosiga ega. Darhaqiqat, antroponimlarning mohiyati ularning antroponimik ma'nosidan tashqari, ya'ni biror shaxsni atashdan tashqari, etimologik ma'nosi ham mavjud so'zlovchi va tinglovchilar tomonidan jonli qabul qilinadigan o'zakdosh so'zlar ma'nosi bilan bog'liqlik semasi ham bor. Bu sema fakultetativ bo'lib, antroponimik tadqiqotlar uchun ahamiyatsizdir. Lingvistik nuqtai nazardan antroponimlarda ikki ma'no: antroponimik ma'no hamda etimologik ma'no farqlanadi. Bu ma'nolarni izohlash, tahlil qilish borasida o'zbek tilshunoslari ancha ishlar qilganlar [2].

2. Tarixiy etnografik yoki etnologik tadqiq. Bu yo'nalishda antroponim sifatida u yoki bu turdagi otlarning antroponimlar sifatida ishlatilishining etnografik – xalq urf-odatlarini, rasmlar-rusumlari bilan bog'liqlik masalalari o'rganiladi. Chunonchi, *Temur*, *Tosh*, *Bolta* kabi nomlarning qo'yilishi bolaning joni qattiq bo'lsin, boshi toshdan bo'lsin kabi niyatlar odam va nom, uning sohibi bilan aloqadorligi, ibtidoiy tasavvuri asosida yuzaga kelgan: *Itolmas*, *Sarimsoqboy* kabi

ismlarning qo'yilishi ham juda qadimiy tasavvurlardan biri – chiroyli nom jin, ajina, dev kabi zararkunandalarni nom sohibiga jalb qilishi, xunuk nomlar esa ularni nom sohibidan uzoqlashtirishi kabi tasavvurlar bilan bog'liq. Shuning uchun bunday tasavvurlardan xoli bo'lgan islom dinida mo'minlar payg'ambarimiz: "Farzandlaringizga chiroyli ismlar berung", – degan hadislariga amal qilib, o'zbeklarda, qadim zamonlardan oq chaqaloqqa "Qur'oni Karim" asosida nom qo'yish odat tusiga aylangan edi. Uch, yetti kunlik chaqaloqning qulog'iga azon aytilib, "Qur'oni Karim" ochilar edi va uning oyatlaridagi so'zlar ichidan atoqli nom sifatida qo'llanadigan so'zlar tanlanib chaqaloqqa shu asosida ism berilar edi. O'zbek xalqining nom qo'yishda yana boshqa o'nlab omillari bor va ular ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Jumladan, A.Irisov: "Kishi ismlarining ma'nosini bilish har kimni ham qiziqitiradi. Chunki xalqimizda mavjud ismlarning hammasini ham o'ziga xos ma'nolari bor, ularda qadim zamonlardagi turmush-sharoitlar, urf-odatlar ma'lum darajada eks etgan, ular orqali o'tmishdagi ijtimoiy hayot haqida ham ba'zi narsalarni tasavvur qilishimiz mumkin", – deb yozadi [4].

3. Tizimiy o'rganish. Bu yo'nalishda antroponim va apellyativ leksikaning ma'noviy tuzilishi, xabar berish (informatsiya) qobiliyati, uslubiy xususiyatlari tadqiq etiladi. Antroponimlarning uslubiy xususiyatlari badiiy adabiyotdagi o'rni masalasida o'zbek tilshunosligida ayrim ishlar qilingan. Lekin antroponimlarning informativ qobiliyatining apellyativ leksika informativ qobiliyatiga munosabati muammosiga kam e'tibor berilgan. Shuning uchun qisqa bo'lsa ham, shu masalaga to'xtalib o'tamiz. Bu masalalarni "Edgar" (*Edgar*), "Bonita" (*Bonita*) nomlari *nayza*, *yoqimtoy* apellyativ leksikasini o'zaro chog'ishtirish asosida ko'rib o'tamiz. "Edgar" (*Edgar*) – qadimgi ingliz tili elementlari "ead - boylik, omad", "gar - nayza" so'zlaridan yasalgan. X asrda yashab o'tgan bir ingliz qirolining nomi bo'lgan. Normanlar istilosidan so'ng ism saqlanib qolmagan, biroq XVIII asrda qayta tiklangan. Bunga Ser Uolter Skotning "The Bride of Lammemoor" (1819), Edgar Ravensvud va Lyusi Ashton o'rtasidagi fojiali muhabbat haqidagi romanining nashr etilishi qisman sabab bo'lgan degan taxminlar bor. Ismning egalari mashhur yozuvchi va shoir Edgar Allan Po (1809 - 1849), Fransuz impressionist rassomi Edgar Degas (1834 - 1917) va yozuvchi Edgar Rays Barrouz (1875 - 1950).

"Bonita" ("Bonita") yoki erkalovchi shakli "Bonniye" (*Bonnie*) – shotlandcha "bonniye - yoqimtoy" so'zidan olingan bo'lib, o'z navbatida bu so'z o'rta asr fransuz tilidagi "bon-yaxshi" so'ziga taqaladi. Bu ism Amerikada XIX asrdan beri ism sifatida qizlarga berib kelinadi va u asosan 1939 yilda "Shamollarda qolgan hislarim" filmi namoyishidan keyin ommalashib ketdi. Film bosh qahramoni *Skarlett* – *Alvon*, *Yolqin*ning qizchasini erkalab, *Bonniye* laqabi bilan chaqirishar edi.

Shaxs ismlariga tarixiy yondashish diaxroniya nuqtai nazaridan har bir ism ijtimoiy-madaniy belgi orqali motivlashganligi sababdan nafaqat individni nomlash bilangina chegaralanib qolmasdan, shuningdek, u haqida ma'lumot berishini ham namoyon etishga imkon beradi. Bundan tashqari, har bir jamiyatda ismlarni tasodifiy va ma'nosiz narsa sifatida gapirishga imkon bermaydigan nomlar va nomlash qoidalarining bir butun tizimi mavjud.

Ma'lumki, atoqli va turdosh otlar bir-biri bilan uzviy ravishda bog'langan. Tilda, ayniqsa, nutqda ularning biri o'rinda ikkinchisining qo'llanilishi kabi hodisalarda atoqli otlar tarkibining kengayib borishida muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, turdosh leksemalar antroponimlarga aylangach, ularda qator o'zgarishlar yuz beradi, jumladan, ular kategoriya jihatidan o'zgaradi (boshqa leksik-grammatik guruhga o'tadi), semantik jihatdan ham o'zgarishga (ma'no maxsuslanishiga) uchraydi. Leksema antroponimlarga aylangach, uning asosiy vazifasi ma'lum shaxsni xuddi shunday boshqa shaxslardan farqlashdan iborat bo'ladi. Shuningdek, ularning formal-morfologik xususiyatlari ham o'zgaradi. Shuning uchun antroponimlar yasalishida ham maxsus tomonlar mavjud. Bu, ayniqsa, antroponimlar kompozitsiya usulida hosil bo'lishida yaqqol ko'rinadi. Jumladan, o'zbek tilida otning kichraytirish, erkalash shakllari va boshqa yordamchi unsurlar ham turdosh otlardan atoqli ot hosil qilishda keng qo'llanadi: *Otabek*, *Bekjon*, *Qizlarxon* kabi. Bu hodisa professor A.Muxtorovning "Atoqli otlarning turdosh ot asosida hosil bo'lishi" maqolasida keng tahlil qilingan [5].

Xulosa va takliflar. Badiiy asar onomastikoni madaniyat onomastikoni asosida shakllanadi, onomastik belgilar va badiiy onomastikonlar tipologiyasi asosida badiiy voqelikni onomastik metaforalashtirish muammosi ko'rib chiqiladi. Onomastikon ma'lum bir til va madaniyatda onomastik konseptlarning verballashuvi asosida atoqli otlarning to'plami sifatida aniqlanadi. Antroponimlar sifatida *Edgar* va *Bonita* so'zlarida ham o'ziga xos ma'no bormi? Bor, chunonchi, *Edgar* antroponimini eshitgach, bizning ongimizda "shaxs" + "erkak" + "qurol", *Bonita* antroponimida ham "shaxs" + "ayol" + "go'zal" kabi ma'nolar gavdalanadi. Xuddi shunday ma'nolar nafaqat *Edgar* so'ziga, balki ingliz erkak ismlarining barchasiga ham xosdir. *Bonita* so'zi esa lisoniy tizimda ayol leksemasining eng chekka qurshovini egallaganligi bilan bog'liq. Shuning uchun antroponimlarning informativ qobiliyati har bir shaxs uchun alohidadir. Chunki uning tarkibidagi muayyan antroponimlarning mohiyatini har bir antroponim tarkibida bo'lgan semalar bilan barcha erkak antroponimlari ham, barcha ayol antroponimlari ham bir xil in informativ qobiliyatga ega. Shunga ko'ra atoqli otlarning informativ ma'noviy qobiliyatini hech qachon apellyativ leksika – turdosh otlar ma'noviy xususiyati bilan qiyoslash yoki aynan bog'lash mumkin emas. Masalan, o'zbek tilidagi: *Qahramon*, *Botir*, *Qo'rqmas* kabi ismlar bilan yuritiluvchi shaxslar o'z karakter va xususiyatiga ko'ra ismining antonimi, ya'ni qo'rqoq bo'lishi mumkin. Bu o'rinda masalaga yana oydinlik kiritish uchun yangi tug'ilgan bolalarni nomlash bilan bog'liq bo'lgan ekstralingvistik hodisalar haqida fikr yuritish lozim. Birinchidan, nomlashda qadim zamondagi turmush sharoitlari, urf-odatlar, kishilarning diniy tushuncha tasavvurlarini ongda ma'lum darajada aks ettirish bilan bog'liq holda paydo bo'lgan ismlar. Ikkinchidan, antroponim uchun asos bo'lgan apellyativning leksik ma'nosini nazarda tutmay, uning semantik strukturasi komponentlarining biror-bir semasi nazarda tutib nomlanishi mumkin. Masalan: po'lat apellyativida qattiq, yaltiroq, zanglashga chidamli, turli xil o'tkir asboblar yasashga yaraydigan kabi qator semalar mavjud. Turli leksemalarning xuddi shunday xususiyatlarini tilshunoslikdagi komponent tahlil metodi bilan tadqiq qilish orqali aniqlanishi mumkin. Ana shundan kelib chiqqan holda, Po'lat atoqli oti u asos bo'lgan apellyativning "qattiqlik", "chidamli" semalarini ongda reallashtirish natijasida hosil bo'lgan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ungerer F., Schmid H.J. An Introduction to Cognitive Linguistics. – Edinburgh et al.: - Person Education Limited, 1996. – 306 p.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 264 б.
3. Гурбанов А.М. Азербайжан эдби дили. - Баку: Маориф 1985. – Б. 249–272.
4. Ирисов А. "Исмингизнинг маъноси нима?" ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1965. 5-сон.
5. Мухторов А. По следам прошлого. – Душанбе: Академия наук Республики Таджикистан, 2004. – 132 с.
6. Павленис Р. И. Проблема смысла: современный логико-философский анализ языка. – Москва: Мысль, 1983. – 286 с. [Gurbanov. 1985: 17].

7. Тлехас Б.Г. Адыгейские фамилии: легенды и предания. – Москва, 2004. – 374 с.
8. Уфимцева А.А. Лексическая номинация (первичная нейтральная). – Москва: Либроком, 2010. – 397 с.